



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG‘I

2026 yil “21” iyul

233-son

Toshkent sh.

Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimida ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat, startaplar hamda tibbiyot texnologiyalarini rivojlantirish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF–22-son Farmoni, 2026-yil 11-fevraldagi “Startaplarni qo‘llab-quvvatlashning kompleks ekotizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–59-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 2026-yil 30-yanvardagi 02-PA 1/1-516-son topshirig‘i ijrosini ta‘minlash, shuningdek, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni tizimli tashkil etish, startaplar hamda tibbiyot texnologiyalarini rivojlantirish va ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida, **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Sog‘liqni saqlash tizimidagi ilmiy-tadqiqotlar, startaplar va innovatsion faoliyatni muvofiqlashtiruvchi kengash tarkibi **1-ilovaga** muvofiq;

Sog‘liqni saqlash tizimidagi ilmiy-tadqiqotlar, startaplar va innovatsion faoliyatni muvofiqlashtiruvchi kengash nizomi **2-ilovaga** muvofiq;

Ilmiy natijalar va ilmiy loyihalarni baholash va tasdiqlash, xulosa va tavsiya berish uchun qo‘yiladigan talablar **3-ilovaga** muvofiq;

Sog‘liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi respublika markazlari hamda shifoxonalarining ilmiy faoliyatini asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholash va monitoring qilish mezonlari **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Sog‘liqni saqlash tizimidagi ilmiy-tadqiqotlar, startaplar va innovatsion faoliyatni muvofiqlashtiruvchi kengash (keyingi o‘rinlarda – Kengash)ga taqdim etilayotgan hujjatlarning sifati va ishonchliligi uchun tegishli tashkilotlarning ilmiy ishlar bo‘yicha prorektorlari yoki ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari shaxsan javobgar etib belgilansin.

3. Kengash a'zolari hamda tegishli ekspertlar o'zlari faoliyat yuritayotgan tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan har chorakda kamida bir marta belgilangan tartibda rag'batlantirib borilsin.

Bunda, rag'batlantirish miqdorlari tashkilotlar xodimlarining mehnatini rag'batlantirishga oid ichki lokal hujjatlarida belgilangan miqdorlarda amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

4. Sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi respublika markazlari hamda shifoxonalari (keyingi o'rinlarda – Tibbiyot markazlari)dagi Ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash bo'limlarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

samarali ilmiy faoliyat olib borish uchun qulay ekotizimni yaratish;

intellektual mulk obyektlarini (elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, oshkor etilmagan axborotlar, shu jumladan, ishlab chiqarish sirlari, mavjud usullar modifikatsiyalari va boshqalarni) O'zbekiston Respublikasi hududida hamda undan tashqarida ro'yxatdan o'tkazish, patentlash, litsenziyalash va boshqa jarayonlarda amaliy yordam ko'rsatish;

ilmiy maqolalarning nufuzli xorijiy, jumladan Scopus, Web of Science va Journal Citation Reports ma'lumotlar bazalarida indeksatsiyalangan jurnallarda chop etilishini qo'llab-quvvatlash;

ilmiy ishlanmalar, patentlar, zamonaviy tibbiyot texnologiyalari, innovatsion g'oyalar va boshqa ilmiy natijalarni muvofiqlashtirish, amaliyotga joriy etish hamda ulardan samarali va xavfsiz foydalanishni tashkil etish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni ishlab chiqish;

“ta'lim – ilm-fan – amaliyot” uyg'unligini ta'minlash;

ilmiy grant loyihalarini tayyorlash, kuzatib borish va ularda ishtirok etishni amaliy qo'llab-quvvatlash;

klinik tadqiqotlarda bioinformatika, biostatistika, bioetika va ma'lumotlarni tahlil qilish (Data Science) tamoyillarini joriy etish;

ilmiy xodimlarni tayyorlash bo'yicha o'rta va uzoq muddatli strategik yo'l xaritasini ishlab chiqish va amalga oshirish.

5. Tibbiyot va farmatsevtika sohasida kadrlarni tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari (keyingi o'rinlarda – OTM) rektorlari 2026-yil 1-sentabrdan boshlab:

tibbiyot sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni, jumladan grant loyihalari va startaplarni ishlab chiqish, kuzatish va rivojlantirish, shuningdek, ilmiy nashrlarni tayyorlashga o'rgatish bo'yicha dastur asosida muntazam faoliyat olib borsin;

“Oliygothlar – startaplar generatori” dasturi doirasida maxsus o'quv kurslari tashkil etilishini hamda ushbu kurslarda talabalar o'qitilishini ta'minlasin;

ilmiy-tadqiqot loyihalari, grantlar, innovatsion g'oyalar va startaplar bilan ishlovchi bittadan bosh va yetakchi mutaxassis lavozimlarini joriy etsin. Bunda ushbu lavozimlarga mazkur yo'nalishlarda yuqori malaka va tajribaga ega mutaxassislarni ishga qabul qilish nazarda tutilsin;

tizimli ravishda buyuk tabib va faylasuf Abu Ali ibn Sino merosiga bag'ishlangan ma'ruza va ko'rgazmalar o'tkazilishini ta'minlasin.

6. OTM rektorlari 2026-yil 1-sentabrga qadar “Startaplar klubi” faoliyatini yo‘lga qo‘ysin hamda startap jamoalarini shakllantirish choralari ko‘rsin.

7. Matbuot kotibi (F.Sanayev) bir hafta muddatda mazkur buyruqning mazmun-mohiyatini vazirlikning rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida keng yoritilishini ta‘minlasin.

8. Ushbu buyruq qabul qilinishi munosabati bilan Sog‘liqni saqlash vazirining 2026-yil 19-martdagi “Sog‘liqni saqlash tizimida ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy ishlanmalar natijalarini amaliyotga joriy etish hamda ularni muvofiqlashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 94-son buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Mazkur buyruq ijrosining nazorati vazir o‘rinbosari A.Xudaykulov zimmasiga yuklansin.

Vazir



E. Adilov

Sog'liqni saqlash vazirining
2026-yil "21" iyuldagi
233 -sonli buyrug'iga
2-ilova

**Sog'liqni saqlash tizimidagi ilmiy-tadqiqotlar, startaplar va innovatsion
faoliyatni muvofiqlashtiruvchi kengash
NIZOMI**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom sog'liqni saqlash tizimidagi ilmiy-tadqiqotlar, startaplar va innovatsion faoliyatni muvofiqlashtiruvchi kengashning (keyingi o'rinlarda – Kengash) maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, majburiyatlari, faoliyatini tashkil etish hamda qarorlarini rasmiylashtirish tartibini belgilaydi.

2. Kengash sog'liqni saqlash tizimida fundamental, amaliy, innovatsion va startap loyihalarni (keyingi o'rinlarda – Loyihalar) muvofiqlashtirish, dissertatsiya natijalarining amaliyotga tatbiq etilganligi to'g'risidagi hujjatlar, monografiya va boshqalarni (keyingi o'rinlarda – Ilmiy ishlanmalar) baholash, shuningdek, ilmiy va uslubiy hujjatlarni ko'rib chiqish bo'yicha doimiy faoliyat yurituvchi organ hisoblanadi.

3. Kengash o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasi hujjatlariga va boshqa qonunchilik hujjatlariga, Sog'liqni saqlash vazirligi (keyingi o'rinlarda – Vazirlik) buyruqlariga va ushbu Nizomga amal qiladi.

4. Kengash o'z faoliyatini xolislik, oshkoralik, ilmiylik, kollegiallik, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, tenglik va javobgarlik tamoyillari asosida amalga oshiradi.

5. Kengash faoliyati Tibbiyot ta'limi va ilm-fan departamenti (keyingi o'rinlarda – Departament) bilan hamkorlikda tashkil etiladi hamda uning tashkiliy-uslubiy faoliyati mazkur Departament tomonidan muvofiqlashtiriladi.

2-bob. Kengashning asosiy vazifalari va funksiyalari

7. Kengashning asosiy vazifalari:

a) sog'liqni saqlash tizimida ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatning ustuvor hamda dolzarb yo'nalishlarini belgilaydi;

b) Ilmiy ishlanmalar natijalarining sog'liqni saqlash amaliyotiga joriy qilinganligini asoslovchi hujjatlarni baholaydi, tasdiqlaydi va xulosa beradi;

d) Loyihalarni moliyalashtirish yoki rad etish bo'yicha xulosa beradi;

e) Sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi respublika markazlari va shifoxonalari (keyingi o'rinlarda – Tibbiyot muassasalari)ning ilmiy samaradorligini asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (keyingi o'rinlarda – KPI-ko'rsatkichlari) bo'yicha muntazam monitoring qilish bo'yicha takliflar beradi;

f) xalqaro tajriba asosida sog'liqni saqlash sohasida ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga doir takliflar ishlab chiqadi;

g) ilmiy va innovatsion faoliyatni raqamlashtirish, elektron hujjat almashinuvi va monitoring tizimlarini joriy etish bo'yicha takliflar tayyorlaydi.

8. Kengash o'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) kelib tushgan hujjatlarni ixtisosligi bo'yicha ko'rib chiqadi;

b) hujjatlar bo'yicha qayta ishlash va takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar beradi;

d) ko'rib chiqilgan hujjatlar yuzasidan ma'qullash, qayta ishlash uchun qaytarish yoki rad etish bo'yicha xulosa beradi;

e) ilmiy natijalarni sog'liqni saqlash amaliyotiga joriy etilishi bo'yicha monitoring qiladi;

3-bob. Kengashning huquqlari

9. Kengash quyidagi huquqlarga ega:

a) vazirlik tizimidagi tashkilotlardan o'z vakolati doirasida zarur hujjatlar, ma'lumotlar, tushuntirishlar yoki qo'shimcha materiallarni talab qilish;

b) ilmiy va uslubiy hujjatlarni ko'rib chiqish uchun mustaqil ekspertlar, mutaxassislar va tashkilotlar vakillarini jalb etish;

d) hujjatlarni qayta ishlash uchun qaytarish;

e) hujjatlar yuzasidan qo'shimcha ekspertiza tayinlashni tavsiya etish;

f) o'z vakolati doirasida takliflar ishlab chiqib, Departamentga kiritish.

4-bob. Kengash a'zolarining majburiyat va huquqlari

10. Kengash a'zolari quyidagilarga majbur:

a) hujjatlarni xolis, mustaqil va ilmiy asosda ko'rib chiqish;

b) maxfiylik talablariga rioya etish;

d) manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lsa, bu haqda darhol ma'lum qilish;

e) ko'rib chiqish jarayonida o'z vakolatidan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanmaslik;

f) Kengash faoliyatida faol ishtirok etish va qabul qilingan qarorlar ijrosiga doir talablarga rioya qilish.

11. Kengash a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

a) ko'rib chiqilayotgan hujjatlar yuzasidan fikr bildirish;

b) qo'shimcha axborot va materiallar so'rashni taklif etish;

d) qo'shimcha ekspertiza tayinlashni taklif etish;

e) o'z arizasiga binoan Kengash tarkibidan chiqish;

f) ilmiy samaradorlikni baholashda Kengash a'zolari, mustaqil ekspertlar va boshqalardan tashkil topgan ishchi guruh Tibbiyot muassasalariga shaxsan tashrif buyurib, taqdim qilingan ma'lumotlarning to'g'riligi va haqqoniyligini bevosita tekshirish, asoslovchi hujjatlar, qo'shimcha ma'lumotlar va boshqa ishga doir ma'lumotlarni talab qilish.

12. Kengash a'zosi ko'rib chiqilayotgan hujjat bilan bevosita aloqador, ya'ni muallif, hammuallif, ilmiy rahbar, konsultant, buyurtmachi yoki manfaatdor tomon sifatida ishtirok etayotgan bo'lsa, u holda mazkur masalani muhokama qilish va ovoz berishda ishtirok etmaydi.

5-bob. Kengash tarkibi va faoliyatini shakllantirish tartibi

13. Kengash tarkibi Vazirlik markaziy apparati, OTM, Tibbiyot muassasalarida samarali faoliyat olib borayotgan, ilmiy darajaga ega bo'lgan tibbiyot xodimlari, professor-o'qituvchilar, mustaqil olimlar, biostatistiklar, biotexnologlar va boshqalardan tashkil topadi.

14. Zarurat tug'ilganda Kengash faoliyatiga tibbiyotga aloqador bo'lmagan sohalarda, jumladan informatsion texnologiyalar, sun'iy intellekt mutaxassisleri, startap mentorlari, farmatsevtlar va boshqalar mustaqil ekspert sifatida jalb qilinadi.

15. Kengash tarkibi **2 yil** muddatga sog'liqni saqlash vaziri tomonidan tasdiqlanadi. Kengash tarkibining kamida **20 foizi** har 6 oyda belgilangan tartibda yangilanadi.

16. Kengash tarkibi tasdiqlangandan so'ng **3 ish kuni** davomida o'z ish rejasini tasdiqlaydi va faoliyatini boshlaydi.

17. Kengash tarkibi rais, rais o'rinbosari, a'zolar va kengash kotibidan iborat bo'lib, ularning umumiy soni **20 nafar** bo'ladi.

18. Kengash o'z faoliyatini tasdiqlangan ish rejasi asosida quyidagi **3 yo'nalishda** amalga oshiradi:

- a) Ilmiy ishlanmalarni baholash, yakuniy xulosa berish va tasdiqlash;
- b) Loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha xulosa berish;
- d) Tibbiyot muassasalari ilmiy samaradorligini KPI-ko'rsatkichlari asosida baholash.

19. Kengashga hujjatlarni qabul qilish, ro'yxatga olish, dastlabki ko'rib chiqish, ekspertiza uchun taqsimlash, Kengash kun tartibiga kiritish hamda xulosa va tavsiyalarni rasmiylashtirish jarayonlari elektron shaklda 18-bandda belgilangan yo'nalishlar kesimida turli tartibda amalga oshiriladi.

20. Kengashga kelib tushgan Ilmiy ishlanmalar **muntazam ravishda**, Loyihalar **har chorakda** kamida bir marta, Tibbiyot muassasalarining ilmiy samaradorligi esa **1 yilda bir marta** Kengash a'zolari, zarurat bo'lganda qo'shimcha ekspertlar tomonidan ko'rib chiqiladi. Bunda:

a) Ilmiy ishlanmalar, Loyihalar hamda Tibbiyot muassasalarining ilmiy faoliyatiga oid ma'lumotlar (keyingi o'rinlarda – Murojaatlar) kengash@ssv.uz korporativ elektron pochta manziliga tashkilot (ilmiy kotib, ilmiy bo'lim boshlig'i va boshqalar) tomonidan jo'natiladi va belgilangan tartibda ro'yxatga olinadi;

b) Murojaatlar kelib tushganidan boshlab **3 ish kuni** davomida Kengash kotibi tomonidan texnik ekspertizadan o'tkaziladi. Bunda Murojaatlarning to'liqliligi va sifatli baholanadi;

d) texnik ekspertizadan o'tgan Murojaatlar Kengash kotibi tomonidan Kengash a'zolariga elektron tarzda idoralararo ijro tizimi (edo.ijro.uz) yoki elektron pochta manzili orqali jo'natiladi. Bunda Ilmiy ishlanmalar mutaxassislik bo'yicha

Kengashning tegishli a'zolariga, Loyihalar va Tibbiyot muassasalarining ilmiy samaradorligiga oid ma'lumotlar esa Kengashning har bir a'zosiga yuboriladi;

e) texnik ekspertizadan o'tmagan Murojaatlar kamchiliklari ko'rsatilgan holda qaytib tashkilotning elektron pochta manziliga yuboriladi.

f) Murojaatlarni ko'rib chiqishda quyidagilar inobatga olinadi:

dolzarbligi;

ilmiy yangiligi;

ilmiy asoslanganligi;

amaliy ahamiyati;

amaliyotga joriy etish imkoniyati;

xalqaro standart va zamonaviy yondashuvlarga mosligi;

tijoratlashtirish imkoniyati;

rasmiylashtirish sifati va boshqalar.

21. Ilmiy ishlanmalar kelib tushgan kundan boshlab Kengash a'zolari tomonidan **2 ish kuni** ichida ko'rib chiqiladi va quyidagi tartibda xulosa beriladi:

a) Kengash a'zosi tomonidan har bir qabul qilingan Ilmiy ishlanma bo'yicha Kengash kotibiga ijobiy yoki salbiy mazmundagi asoslangan xulosa qayta jo'natiladi;

b) ushbu xulosa yakuniy bosqichda Kengash raisining elektron raqamli imzosi (QR-kodli) bilan tasdiqlanadi va kelib tushgan tashkilotning elektron pochta manziliga Kengash kotibi tomonidan yuboriladi.

22. Loyihalar Kengashning **har chorakda kamida bir marta** o'tkaziladigan Kengash majlisida (keyingi o'rinlarda – Majlis) muhokamaga qo'yiladi va quyidagi tartibda ko'rib chiqiladi:

a) har bir Loyiha muallifi yoki mualliflari Kengash majlisida grant loyiha bo'yicha qisqacha taqdimot qilib beradi;

b) barcha Loyihalar taqdimoti yakunlangandan keyin, har bir Loyiha alohida Kengash kotibi tomonidan ovozga qo'yiladi;

d) ovoz berish jarayonida Loyiha muallifi yoki mualliflari ishtirok etmaydi;

e) ovoz berish natijalari Kengash kotibi tomonidan rasmiylashtiriladi va Kengash raisi tomonidan belgilangan tartibda elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi;

f) tasdiqlangan Kengash qarori Kengash kotibi tomonidan tashkilot elektron pochtasiga **3 ish kuni** ichida yuboriladi;

g) agar munozarali holatlar paydo bo'lsa, zaruratga qarab navbatdan tashqari Majlislar chaqirilishi, shuningdek, alohida masalalarni ko'rib chiqish uchun vaqtinchalik ekspert guruhlarini tuzilishi mumkin.

23. Tibbiyot muassasalarining ilmiy samaradorligini asoslovchi hujjatlar 4-ilovaga muvofiq shakllantirilib, har yilning **1-dekabridan 21-dekabriga** qadar Kengashga elektron shaklda yuboriladi va quyidagi tartibda ko'rib chiqiladi:

a) Kengash kotibi har yilning **28-dekabriga qadar** ilmiy samaradorlik bo'yicha to'plangan ma'lumotlarni Kengash a'zolarining elektron pochtalariga o'rganib chiqish uchun jo'natadi;

b) Kengash a'zolariga ma'lumotlarni o'rganib chiqish uchun **1 oy muddat** beriladi;

d) Kengashning I chorakdagi birinchi Majlisi har yilning fevral oyida o'tkaziladi. Ushbu Majlisga Kengash a'zosi bo'lmagan Tibbiyot muassasalaridan qo'shimcha ekspertlar jalb qilinadi;

e) Kengash a'zolari va ekspertlar Tibbiyot muassasalari tomonidan taqdim qilingan ma'lumotlar asosida Tibbiyot muassasalarining ilmiy samaradorlik bo'yicha milliy reytingi aniqlanadi va Kengash kotibi tomonidan belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi;

f) Milliy reyting natijalari Kengash raisining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi va Kengash kotibi tomonidan Tibbiyot muassasalarining elektron pochta manzillariga yuboriladi. Shuningdek, milliy reyting natijalari Vazirlikning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida ham yoritiladi;

24. Majlis rais tomonidan, u bo'lmaganda rais o'rinbosari tomonidan olib boriladi.

25. Majlisning sanasi, o'tkazilish joyi, kun tartibi va ishga doir boshqa hujjatlar Majlisdan kamida **5 ish kuni** oldin a'zolarga Kengash kotibi tomonidan idoralararo tizim (edo.ijro.uz) yoki rasmiy elektron pochta manzili orqali e'lon qilinadi.

26. Bir nechta ixtisosliklarni qamrab oluvchi masalalar ko'rib chiqilganda, tegishli yo'nalishlar bo'yicha qo'shimcha ekspertlar jalb etiladi.

27. Majlislar an'anaviy va masofaviy shaklda yoki aralash formatda o'tkaziladi.

28. Majlisda Kengash a'zolarining kamida **uchdan ikki** qismi ishtirok etgan bo'lsa, Kengash yig'ilishi vakolatli (kvorumga ega) bo'ladi.

29. Kengash qarorlari ochiq ovoz berish yo'li bilan, Majlisda ishtirok etgan a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Kengash kotibiga ovoz berish huquqi berilmaydi.

30. Birinchi kelib tushgan arizalar birinchi bo'lib ko'rib chiqiladi.

31. Kengash raisi Kengash qarorlarini yakka tartibda o'zgartira olmaydi.

32. Kengash qarorlari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnoma Kengash raisi va kotibi tomonidan elektron raqamli imzo bilan imzolanadi.

33. Kun tartibiga qo'yilgan barcha hujjatlar belgilangan tartibda ko'rib chiqilgan, rasmiylashtirilgan va xulosa berilgan holda Majlis yakunlangan hisoblanadi.

34. Kengash yil yakuni bo'yicha o'z faoliyati va amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Departamentga hisobot kiritadi.

35. Kengash yil yakuni bo'yicha ochiq hisobotni Vazirlikning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida e'lon qiladi.

6-bob. Murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi

36. Kengashdan chiquvchi har qanday hujjat Kengash raisining elektron raqamli (QR-kodli) imzosi bilan chiqadi, ularga muhr bosilmaydi.

37. Kengash tomonidan Murojaatlar bo'yicha berilgan xulosalar Murojaat kelib tushgan tashkilotning elektron pochta manziliga jo'natiladi.

38. Kengashning xulosa va qarorlari keyinchalik monitoring, tahlil va hisobot yuritish maqsadida elektron bazaga kiritiladi.

39. Kengash tomonidan ko'rib chiqilgan hujjatlar yuzasidan qabul qilingan xulosa va tavsiyalardan manfaatdor tashkilot yoki hujjat muallifi norozi bo'lgan

taqdirda, ular ushbu xulosa yoki tavsiya olingan yoki qaror e'lon qilingan kundan e'tiboran **10 ish kuni** ichida Departamentga yozma yoki elektron shaklda e'tiroz kiritish huquqiga ega. E'tirozlar davlat tilida yoki boshqa tillarda beriladi va e'tirozlarni ro'yxatdan o'tkazish daftari yuritiladi. Bunda e'tirozning tartib raqami, kelib tushgan sanasi va boshqa ma'lumotlar qayd qilinadi.

40. E'tirozda quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

- a) e'tiroz bildirayotgan tashkilot yoki shaxsning nomi;
- b) qayta ko'rib chiqilishi so'ralayotgan hujjat nomi;
- d) Kengashning tegishli xulosasi yoki tavsiyasi mazmuni;
- e) e'tiroz asoslari;
- f) zarur bo'lganda, qo'shimcha dalillar va ilova qilinayotgan materiallar.

41. Departamentga kiritilgan e'tirozlar ular kelib tushgan kundan e'tiboran **15 kun** ichida, qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda esa **1 oygacha** bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi. Zarur hollarda qo'shimcha ekspertiza tayinlanishi yoki hujjat qayta muhokamaga kiritilishi mumkin.

42. E'tirozni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra Kengash quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

- a) avvalgi xulosa yoki tavsiyani o'z kuchida qoldirish;
- b) xulosa yoki tavsiyaga o'zgartirish kiritish;
- d) hujjatni qayta ekspertizaga yuborish;
- e) hujjatni qayta ko'rib chiqish uchun kun tartibiga kiritish.

43. E'tirozni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qabul qilingan qaror bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi hamda manfaatdor tashkilot yoki shaxsga elektron shaklda yuboriladi.

44. E'tirozni ko'rib chiqishda manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan yoki avvalgi ko'rib chiqishda ishtirok etgan a'zolarining qatnashishiga yo'l qo'yilmaydi hamda zarur hollarda mustaqil ekspertlar jalb etiladi.

7-bob. Manfaatlar to'qnashuvi, javobgarlik va a'zolikni tugatish asoslari

45. Kengash a'zolarining o'zlari tayyorlagan yoki tayyorlashda ishtirok etgan Ilmiy ishlanmalar, Loyihalar va boshqalarni ko'rib chiqish jarayonida qatnashishiga yo'l qo'yilmaydi.

46. Kengash a'zolari bajarilgan ishning sifati, xolisligi, maxfiylikka rioya etilishi, o'z vaqtida bajarilishi va manfaatlar to'qnashuvi talablariga amal qilinishi uchun shaxsan javobgar bo'ladi.

47. Quyidagi hollarda Kengash a'zosi Kengash tarkibidan chiqarilishi mumkin:

- a) o'z vazifalarini muntazam ravishda bajarmaganda;
- b) xulosa, tavsiya va boshqalar sifati, haqqoniyligi bo'yicha asosli e'tirozlar mavjud bo'lganda;
- d) manfaatlar to'qnashuvini yashirganda;
- e) korrupsiyaviy holatlarga yo'l qo'yganda;
- f) etika qoidalarini qo'pol ravishda buzganda.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

48. Kengash faoliyati bilan bog'liq tashkiliy, texnik va uslubiy masalalar Sog'liqni saqlash vazirligining tegishli tarkibiy bo'linmalari tomonidan qonunchilik hujjatlariga muvofiq ta'minlanadi.

49. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

50. Ushbu Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar belgilangan tartibda kiritiladi.

Sog'liqni saqlash vazirining
2026-yil "21" iyuldagi
233 -sonli buyrug'iga
3-ilova

**Ilmiy natijalar va ilmiy loyihalarni baholash va tasdiqlash,
xulosa va tavsiya berish uchun qo'yiladigan
TALABLAR**

1. Quyida sog'liqni saqlash tizimidagi ilmiy-tadqiqotlar, startaplar va innovatsion faoliyatni muvofiqlashtiruvchi kengash (keyingi o'rinlarda – Kengash)ga taqdim qilingan dissertatsiya natijalarining amaliyotga tatbiq qilinganligi to'g'risidagi hujjatlar, monografiyalar va boshqalar (keyingi o'rinlarda – Ilmiy ishlanmalar) hamda fundamental, amaliy, innovatsion va startap loyihalarni (keyingi o'rinlarda – Loyihalar) ko'rib chiqish, xulosa va tavsiyalar berish uchun qo'yilgan talablar keltirilgan.

2. Monografiyani tasdiqlash uchun talab qilinadigan hujjatlar:

a) Tibbiyot va farmatsevtika sohasida kadrlarni tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari (keyingi o'rinlarda – OTM) yoki Sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi respublika markazlari hamda shifoxonalari (keyingi o'rinlarda – Tibbiyot muassasalari)ning yo'llanma xati;

b) tavsiya qilinayotgan hujjatning matni (6 bosma taboq yoki 96 betdan kam bo'lmagan elektron varianti);

d) OTM yoki Tibbiyot muassasalari Kollegial kengashi majlisi bayonnomasidan ko'chirma;

e) antiplagiat tekshiruvi xulosasi (originallik va iqtibos keltirishlar 70 foizdan kam bo'lmagan);

f) tavsiya qilinayotgan monografiya uchun 2 ta taqriz (ichki va tashqi).

3. Dissertatsiya natijalarining sog'liqni saqlash amaliyotiga tatbiq etilganligi bo'yicha xulosa olish uchun talab qilinadigan hujjatlar:

a) OTM yoki Tibbiyot muassasalari rahbari yoki rahbar o'rinbosari tomonidan imzolangan yo'llanma xat;

b) OTM yoki Tibbiyot muassasalari kafedralararo yoki bo'limlararo yig'ilish bayonnomasining tasdiqlangan shakli;

d) dissertatsiya bajarilgan tashkilot tomonidan dissertatsiyaning dastlabki ekspertizasi yuzasidan olingan xulosa;

e) sog'liqni saqlash amaliyotiga tatbiq etilgan kasallik tashxisi, profilaktika va davolash bo'yicha yangi samarali yondashuv (usul) va trening texnologiya/uslubiy tavsiyanoma/klinikagacha va klinik sinovlardan o'tkazilgan hamda rasmiylashtirilgan original va genetik dorivor vosita, vaksina va diagnostikum/aprobatsiyadan o'tkazilib, sog'liqni saqlash amaliyotiga joriy qilingan kasallik tashxisi, profilaktikasi va davolash bo'yicha ilmiy yechimning tasdiqlangan shakli;

f) amaliyotga tatbiq etilganligi (2 ta va undan ortiq tashkilot) to'g'risidagi hujjatlar (buyruq, dalolatnoma, hisobot) – OTM rahbarlari, Tibbiyot muassasalari

va ularning filiallari rahbarlari, respublika, viloyat va shahar hududiy boshqarma boshliqlari buyruqlari (eksperimental ishlarga Sog'liqni saqlash vazirligi yoki OTM huzuridagi Etika qo'mitalari xulosasi);

g) Oliy attestatsiya komissiyasi byulletenida tasdiqlangan mavzu (PhD/DSc);

h) avtoreferat (3 ta tilda: o'zbek, rus va ingliz tillari);

i) yagona xulosa loyihasi.

4. Amaliy, fundamental va innovatsion loyihalarni ko'rib chiqish uchun talab qilinadigan hujjatlar:

a) OTM yoki Tibbiyot muassasalarining yo'llanma xati;

b) amaliy, fundamental va innovatsion loyihalar **talabnomasining** tashkilot Kollegial kengashi tomonidan tasdiqlangan shakli;

d) har bir **amaliy, fundamental va innovatsion loyihalar talabnomasi** buyurtmachi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan shakllarga muvofiq, quyidagilarni o'z ichiga olishi zarur:

e) ilmiy-tadqiqot guruhining tarkibi har bir lavozimga talablar tavsifi bilan;

f) amaliy, fundamental va innovatsion loyihalar mablag'larining zaruriy moddiy-texnik resurs bazasini (binolar, jihozlar, inventarlar, dasturiy ta'minot, ma'lumotlar bazalari, ma'lumot manbalari va boshqalar) shakllantirishga yo'naltirilganligi (kamida 40 foiz miqdorida), ilmiy jamoa uchun yaratib beriladigan shart-sharoitlar mavjudligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar;

g) ushbu ishlarni amalga oshirish bilan shug'ullanadigan tadqiqot guruhi a'zolari bilan ishlashning ketma-ketligini tavsiflovchi kalendar reja;

h) xarajatlar yo'nalishlari ko'rsatilgan, zarur moliyalashtirish hajmi va muddatlarini aks ettiruvchi moliyaviy reja va hisob-kitoblar;

i) tadqiqotning kutilayotgan natijalarini qo'llash sohasi ko'rsatilgan holda uning asosiy natijalari tavsifi;

j) tavsiya qilinayotgan amaliy, fundamental va innovatsion loyihalar materiallarining **taqdimoti (prezentatsiyasi)**.

5. Startaplarni Kengash tomonidan ko'rib chiqish va amaliy tavsiyalar berish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-58-sonli Farmoni, 2026-yil 11-fevraldagi "Startaplarni qo'llab-quvvatlashning kompleks ekotizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-59-sonli qarori, Prezidenti Administratsiyaning 2026-yil 30-yanvardagi 02-PA 1/1-516-son topshirig'i va boshqa qonunlarda belgilangan tartib asosida amalga oshiriladi.

Sog'liqni saqlash vazirining
2026-yil "21" iyuldagi
233 -sonli buyrug'iga
4-ilova

**Sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi respublika markazlari
va shifoxonalarining ilmiy faoliyatini asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari
bo'yicha baholash va monitoring qilish
MEZONLARI**

T/r	Mezonlar (ko'rsatkichlar)	Ball
I. Kadrlar salohiyati bo'yicha ko'rsatkichlar		30
1	Mavjud ilmiy salohiyat, shu jumladan:	6
	1. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademiklari	3
	2. Fan doktori (DSc)	2
	3. Falsafa doktori (PhD)	1
2	Shifokorlar, hamshiralar va ilmiy xodimlar tarkibidagi yosh olimlar soni (35 yoshgacha)	4
3	Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanayotganlar soni	4
4	Shifokor va ilmiy xodimlarning mobilligi (nufuzli xorijiy ilmiy anjumanlarda ishtiroki, tashkilotlarda ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini olib borish, xorijiy ilmiy izlanuvchilarga ilmiy rahbarlik qilish)	4
5	Doktorlik (fan doktori (DSc) va falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini himoya qilish samaradorligi:	4
	1. Joriy yilda himoya qilganlar soni	2
	2. Ilmiy tashkilotning shifokor va ilmiy xodimlari rahbarligida himoya qilingan doktorlik dissertatsiyalar soni (joriy yilda)	2
6	Ilmiy unvon olish samaradorligi:	4
	1. Professor ilmiy unvoni yoki yetakchi (bosh) ilmiy xodim unvonini olganlar soni	2
	2. Katta ilmiy xodim yoki dotsent ilmiy unvonini olganlar soni	2
7	Dissertatsiyasini muddatida himoya qilgan doktorant yoki mustaqil izlanuvchilar (PhD va DSc) soni (huzurida doktorantura mavjud bo'lsa)	4
II. Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari, xalqaro grantlar va xo'jalik shartnomalari doirasidagi ilmiy-innovatsion loyihalarni amalga oshirish natijalari ko'rsatkichi		30
8	Fundamental loyihalardan kelib tushgan umumiy mablag' miqdori	4
9	Amaliy loyihalardan kelib tushgan umumiy mablag' miqdori	4
10	Innovatsion loyihalardan kelib tushgan umumiy mablag' miqdori	4
11	Xalqaro hamkorlikdagi qo'shma loyihalardan kelib tushgan umumiy mablag' miqdori	6

12	Xalqaro grantlardan kelib tushgan umumiy mablag' miqdori	4
13	Budjetdan tashqari mablag'larning jalb qilinganligi (xo'jalik shartnomasidan tushgan mablag' miqdori)	4
14	Ilmiy tashkilotda innovatsion startap akselerator va inkubatorlarning tashkil etilganligi hamda to'liq faoliyat yuritayotganligi	4
III. Ilmiy faoliyat natijalarini chop etish, undan foydalanish, joriy etish va tijoratlashtirish ko'rsatkichlari		40
15	Respublika markazi va shifoxonalarining Scopus va Web of Science ma'lumotlar bazalaridagi "Xirsh indeksi" (h-index)	8
16	Respublika markazi va shifoxonalaridagi ilmiy darajaga ega shifokor, hamshira, ilmiy izlanuvchi va ilmiy xodimlarning Scopus va Web of Science ma'lumotlar bazalaridagi "Xirsh indeksi" (h-index)	6
17	Xalqaro ilmiy jurnallar, mahalliy ilmiy nashrlarda chop etilgan maqola va monografiyalar soni, shu jumladan:	10
	1. Chop etilgan monografiyalar soni (SSV tomonidan tegishli tartibda tasdiqlangan va nashr qilingan)	1
	2. Scopus, Web of Science va Journal Citation Reports ma'lumotlar bazalarida indeksatsiya qilingan ilmiy jurnallardagi maqolalar soni	6
	3. Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatidagi ilmiy jurnallardagi maqolalar soni	1
	4. Xalqaro anjumanlarda chop etilgan tezislar soni	1
	5. Respublika miqyosida o'tkazilgan anjumanlar ilmiy to'plamlarida chop etilgan tezislar	1
18	Ilmiy tashkilot tomonidan konferensiya yoki seminarlar tashkil etilganligi	3
	1. Xalqaro konferensiya va seminarlar	2
	2. Respublika miqyosidagi konferensiya va seminarlar	1
19	Ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini amaliyotga joriy qilish, shu jumladan:	5
	1. Xalqaro miqyosida	2
	2. Respublika miqyosida	1
	3. Viloyat miqyosida	1
	4. Tuman va shahar miqyosida	1
20	Ilmiy-tadqiqot natijalarini huquqiy muhofaza qilish	8
	1. Intellektual mulk obyektlariga olingan muhofaza hujjatlari (patentlar, ixtiro, foydali model va boshqalar)	6
	2. Dasturiy mahsulotlarga guvohnomalar (DGU)	2

Izoh: Barcha ko'rsatkichlar Sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi Respublika markazi va shifoxonalarida doimiy faoliyat olib borayotgan shifokor, hamshira, ilmiy xodim va ilmiy izlanuvchilar kesimida hisoblanadi.